

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Kambag‘allik darajasi va unga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinib, mavjud siyosiy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Xususan, mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va normativ-huquqiy asoslarni mustahkamlash orqali kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqotda tahlil, qiyosiy va statistik metodlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, samaradorlik, ijtimoiy siyosat, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, innovatsion yondashuv, normativ-huquqiy asos.

Аннотация. В данной исследовательской работе рассмотрены научно обоснованные пути повышения эффективности сокращения бедности. Проанализированы уровень бедности и факторы, влияющие на него, а также разработаны направления совершенствования существующих политических и экономических механизмов. Установлено, что повышение эффективности возможно за счёт расширения возможностей рынка труда, усиления системы социальной защиты, внедрения инновационных подходов и укрепления нормативно-правовой базы. В исследовании использованы методы анализа, сравнения и статистического исследования.

Ключевые слова: бедность, эффективность, социальная политика, экономическое развитие, занятость, инновации, правовые основы.

Abstract. This research paper examines scientifically grounded ways to improve the effectiveness of poverty reduction. The study analyzes the level of poverty and its influencing factors, while also proposing directions for improving existing political and economic mechanisms. It demonstrates that effectiveness can be enhanced through expanding labor market opportunities, strengthening social protection systems, introducing innovative approaches, and reinforcing the legal framework. Analytical, comparative, and statistical methods were applied in the research.

Keywords: poverty, efficiency, social policy, economic development, employment, innovation, legal framework.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida kambag‘allik masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va inson kapitali rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir davlatning ijtimoiy siyosatida aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va iqtisodiy faollikni kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda kambag‘allikka qarshi kurashishda tizimli islohotlar olib bormoqda. Aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlik va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag‘allik darajasi bosqichma-bosqich qisqarib bormoqda. Biroq mavjud uslubiyotlarni takomillashtirish, samaradorlikni oshirish hamon dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Kambag‘allikni qisqartirishda innovatsion yondashuvlar, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, hududiy ehtiyojlarga moslashtirilgan mexanizmlar va ijtimoiy sheriklikning roli katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mavjud uslubiy yondashuvlarni chuqur tahlil qilish va ularni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur. Mazkur ish kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqish, amaliy mexanizmlarni

takomillashtirish hamda davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotimizning ushbu bosqichida kambag'allik darajasini aniqlashdagi mavjud noaniqliklar, turli darajadagi moliyaviy vositalarning ko'pligi va ayni chog'da ularni taqsimotidagi tushunmovchiliklar, noaniqliklar singari turli masalalar muhokama qilinib, ijtimoiy yordam dasturlarining notekis taqsimlanishi, aholi bandligini ta'minlash, yangi va daromadli ish o'rinlarini shakllantirish singari muammolarini hal etish bo'yicha real takliflar ilgari surilgan. Bundan tashqari, kambag'allikni qisqartirish masalalarida davlat tomonidan ajratilgan mablag'larning teng va samarali taqsimlanishi, jarayondagi shaffoflikni ta'minlash hamda uzluksiz, sifatli monitoring tizimini rivojlantirish zarurati asoslab beriladi. Mamlakatimizning kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish borasidagi aniq strategiyasini ishlab chiqishga oid ilmiy tahlillar asosidagi takliflar davlat va mavjud ijtimoiy tizimlarning real imkoniyatlari, o'rta hamda uzoq kelajakdagi imkoniyatlarni aniq baholashda qo'l keladi.

Kambag'allik hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bevosita aloqadorlik masalalari F.Bourguignon¹, T.Eicher, S.M.Grosse, K.Hartgen, S.Klasen², A.Kalvij, A.Verschor³, T.Besley, R.Burges⁴, D.Dollar, A.Kray⁵, M.Ravallion⁶, N.Kakwani⁷ singari olimlar tadqiqot ishlarida keng qamrovda o'rganilgan. A.A.Erumban va G.J.De Vries⁸ rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikni qisqartirish va ishlab chiqarish infratuzilmasidagi o'zgarishlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishga asoslangan empirik tadqiqotlar o'tkazishgan. Tadqiqotda 1990-yildan, 2018-yilgacha bo'lgan davrda 42 ta rivojlanayotgan mamlakatlarda sohalararo unumdorlik o'sishi va strukturaviy o'zgarishlar, ya'ni ishchilarning turli sohalar o'rtasida qayta taqsimlanishini hisob-kitob qilish maqsadida yangi GGDC/UNU-WIDER iqtisodiy transformatsiya ma'lumotlar bazasidan foydalanilgan.

Mamlakatimiz siyosatida inson manfaatlarini ulug'lash, ijtimoiy adolat tamoyillarini barqarorlashtirish ustuvor yo'nalishlardan sanalib, aholining muayyan qatlami o'rtasidagi kambag'allik mavjudligini inkor etmagan holda, uni qisqartirish bo'yicha maxsus tizim ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi.

Qayd etish lozimki, mehnat bozorida zamonaviy raqobat muhitiga dosh berolmaslik, boqimandalik kayfiyatining vujudga kelishi va yuqoriligi, milliy urf-odatlar bahonasida ortiqcha sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilishi, ta'lim tizimidagi tizimli muammolar hamda hududlarda tibbiyot sohasi sifatining talab darajasidan pastligi singari omillar kambag'allikka yetaklovchi asosiy sabablar sirasidandir⁹.

TADDIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirish yo'llarini chuqur o'rganish uchun turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalaniladi. Eng avvalo, tahlil va sintez metodi orqali mavjud ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rganilib, kambag'allik darajasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi.

¹ F.Bourguignon The growth elasticity of poverty reduction: Explaining heterogeneity across countries and time periods. T.Eicher, S.Turnovsky (Eds.), *Inequality and growth. Theory and policy implications*, MIT Press, Cambridge, MA (2003)

² M.Grosse, K.Harttgen, S.Klasen Measuring pro-poor growth in non-income dimensions *World Development*, 36 (6) (2008), pp. 1021-1047, [10.1016/j.worlddev.2007.10.009](https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2007.10.009)

³ A.Kalwij, A.Verschor Not by growth alone: The role of the distribution of income in regional diversity in poverty reduction *European Economic Review*, 51 (4) (2007), pp. 805-829,

⁴ T.Besley, R. Burgess Halving global poverty *Journal of Economic Perspectives*, 17 (3) (2003), pp. 3-22,

⁵ D.Dollar, A.Kraay Growth is good for the poor *Journal of Economic Growth*, 7 (3) (2002), pp. 195-225, 10.1023/A:1020139631000

⁶ M.Ravallion Growth and poverty: Evidence for developing countries in the 1980s *Economics Letters*, 48 (3-4) (1995), pp. 411-447,

⁷ N.Kakwani Poverty and economic growth with application to Côte d'Ivoire *Review of Income and Wealth*, 39 (2) (1993), pp. 121-139,

⁸ Erumban A. A., de Vries G. J. Structural change and poverty reduction in developing economies // *World Development*. – 2024. – T. 181. – C. 106674.

⁹ Muzaffarovich N. R. Barqaror iqtisodiy o'sish asosida kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari // *Analysis of modern science and innovation*. – 2025. – T. 1. – №. 6. – C. 104-114.

Statistik tahlil metodi yordamida bandlik, daromad, ijtimoiy yordam va ta'lim sohalariga oid rasmiy ma'lumotlar tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil metodi orqali O'zbekiston tajribasi boshqa davlatlar amaliyoti bilan solishtirilib, samarali usullar ajratib olinadi. Shuningdek, sotsiologik so'rov va intervyular orqali aholining real ehtiyojlari, muammolari va davlat yordami samaradorligi o'rganiladi. Model va prognozlash metodi kelajakda kambag'allik darajasidagi o'zgarishlarni bashorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy tahlil yordamida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda ijtimoiy himoya sohasiga oid qonun va farmonlar o'rganilib, mavjud siyosatning huquqiy poydevori tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida kambag'allikni qisqartirish masalalari bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda va aholining hayot sifati darajasini tubdan oshirishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etib, hukumat milliy rivojlanish strategiyasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qator amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqayotgan bo'lsada, fikrimizcha, bu jarayon murakkab hamda ko'plab omillar bilan bevosita bog'liqligini inobatga olish lozim. Mazkur sababdan, ushbu yo'nalishni chuqur o'rganish va jahon amaliyotidagi xalqaro tajribalarni lozim darajada tahlil qilish kambag'allikka qarshi samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratib, mavzuning global muammo sifatida dolzarbligi va uni qisqartirish masalasi bugungi kunda O'zbekiston uchun iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz¹.

Farovonlikka intilayotgan global o'zgarishlarda qashshoqlikni kamaytirish eng muhim muammo bo'lib qolayotganligiga qaramasdan, so'nggi o'n yilliklarda sezilarli iqtisodiy o'sish kuzatilayotgan bo'lsada, nomutanosibliklar hali hamon saqlanib qolmoqda va bu iqtisodiy strategiyalarda innovatsion o'zgarishlarni joriy etilishini talab qilmoqda².

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo'llashga oid dasturlarni kengaytirish orqali kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy yordam dasturlarining manzilliligini oshirish, jumladan, bo'sh ish o'rinlarini raqamli platformalarda taqdim etish, kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan oilalar va hududlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi va soddalashtiradi³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 23-sentabrda PQ-330-son, "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son hamda "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta'minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan Jamoat ishlari jamg'armasi, Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilganligi hamda Jamg'arma vasiylik kengashi Jamg'armaning oliy boshqaruv organi, 22 ta shtat birligidan iborat Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasi esa uning ijro organi etib belgilanganligi belgilab qo'yilgan⁴.

Jamg'armaning asosiy maqsadi "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oila a'zolarining bandligini rag'batlantirish va tadbirkorlikka jalb etishga ko'maklashish uchun ushbu shaxslarga hamda ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga subsidiya, grant va ssudalar ajratish hisoblanadi.

Mazkur jamg'arma Jamoat ishlari jamg'armasi, Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasining

¹ Tashtanova D. Milliy taraqqiyot strategiyasi: O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish masalalari va xalqaro tajribalar tahlili //Nordic_Press. – 2024. – T. 1. – №. 000001.

² Amrulloev D. N. et al. Kambag'allikni kamaytirish orqali farovonlikni oshirish: iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar //Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 417-421.

³ Shuxrat O'g'li A. S. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish //Yangi O'zbekiston, Yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 2. – №. 4. – C. 84-91.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.03.2025 yildagi 158-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7428395>

huquqlari va majburiyatlari hamda shartnomalar, shu jumladan, xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Huquqiy hujjatda shuningdek quyidagilar belgilab qo'yilgan:

2025-yil 1-oktabrdan boshlab Jamg'arma mablag'lari hisobidan fuqarolarga naqd pul shaklida beriladigan subsidiya, grant va ssudalar bosqichma-bosqich ijtimoiy karta orqali taqdim etiladi;

Jamg'arma Ijro etuvchi direktori va uning o'rinbosari Jamg'armaning vasiylik kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi;

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori Jamg'arma direksiyasi ishini tashkil etadi;

Jamg'arma xodimlari Jamg'armaning ijro etuvchi direktori tomonidan ishga qabul qilinadi va ishdan bo'shatiladi;

Jamg'armaning Ijro etuvchi direktori maqomi, tibbiy, transport va maishiy ta'minot sharoitlari, shuningdek, Jamg'arma xodimlarining mehnatga haq to'lash razryadlari Jamg'armaning vasiylik kengashi tomonidan belgilanadi¹.

Tadqiqotimizning avvalgi bosqichlarida ko'rib chiqilgan bir qator ilg'or xorij amaliyotidan kelib chiqib, *jamg'arma samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar* ishlab chiqdik va quyida ularni birma-bir ko'rib o'tamiz.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, *ta'lim va o'quv dasturlari* kambag'allikni qisqartirishda samarali vosita hisoblanib mahalliy hamda xalqaro darajadagi tajriba, xususan, Xitoy va Hindistonning ta'lim tizimlari orqali kambag'allikni qisqartirishning nihoyatda samaradorligini tasdiqlaydi. Shunga asosan, *jmg'arma* tomonidan kambag'al oilalar uchun tadbirkorlikka oid ta'lim va ma'lumotlar bazasini shakllantirish, shu jumladan, biznes boshqaruvi, moliya va soliq qonunchiligi bo'yicha maxsus kurslar ochilishi zarur sanalib, raqamli ta'lim platformalari orqali ham xizmatlar taqdim etish imkoniyatlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Biznes tarmoqlarining rivojlanishi va hamkorlikning kuchayishi tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli boshlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynashini inobatga olib, *jamg'arma* tomonidan taqdim etilayotgan resurslar ko'magida kambag'al oila vakillari tadbirkorlari qatlamini shakllantirish va *o'zaro yaxlit tarmoq yaratilishi* mumkin. Buning amaliy ahamiyati grantlar va subsidiyalar yordamida tadbirkorlar uchun tarmoq shakllanishi, ularni birlashtiruvchi biznes inkubatorlari yoki platformalar tashkil etilishi, shuningdek, o'zaro tajriba almashish va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazishda ko'zga tashlanadi.

Innovatsion moliyaviy vositalar, xususan, raqamli valyutalar va onlayn kreditlash tizimlari, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi va tizimni yanada samaraliroq faoliyatini ta'minlaydi. Bu orqali moliyaviy inklyuziya va kambag'allikni qisqartirishda samarali metod qo'llanishiga zamin yaratiladi. Fikrimizcha, *jamg'arma subsidiya va grantlarni naqd pul shaklida berish o'rniga, innovatsion moliyaviy vositalar, chunonchi, raqamli to'lov tizimlari yoki kriptovalyutalardan foydalanishni joriy etishi* kerak hisoblanib, buning vositasida nafaqat yordam resurslarini samarali taqsimlashga asos yaratiladi, balki korrupsion tizimlar yuzaga kelishi minimallasadi.

Samarali monitoring va baholash tizimi ko'magida *jamg'arma* ajratgan mablag'larning sarflanishini nazorat qilish va uning ta'sir darajasini aniqroq o'lchash mumkin bo'lib, bu kabi tizimlar yordamida yirik *jamg'armalar* muvaffaqiyatli boshqarilishi va uning samaradorligi oshirilishi mumkin. Amaliy tavsiya sifatida *jamg'arma* tomonidan ajratilgan subsidiya, grant va ssudalar qanday sarflanayotganini kuzatish va baholash tizimini ishlab chiqish zarurligini, tizimda real vaqtda ma'lumot olish imkoniyatlari bo'lishi, shaffoflikni oshirishi va resurslarni samarali taqsimlashga ko'mak berishini qayd etamiz.

Maqsadli guruhlarining asosli va to'g'ri aniqlanishi kambag'allikni qisqartirishdagi asosiy omil hisoblanib, tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, kambag'allikni qisqartirishda tahlillar natijasida aniqlangan va ro'yxatga olingan guruhlariga ko'mak berish samaraliroq hisoblanadi. *Jamg'arma* tomonidan kambag'al oilalar va ularning a'zolari ehtiyojlarini aniqlash uchun muntazam ravishda ijtimoiy tahlillar hamda so'rovnomalar o'tkazish zarurati mavjud sanaladi, shu

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.03.2025 yildagi 158-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7428395>

bilan birga mahalliy jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni mustahkamlash orqali aniq maqsadli guruhlarini ro'yxatga olish uslublari. soddalashadi.

Tadqiqotlar *psixologik ko'mak va motivatsiya* kambag'al oilalarga o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishi, ularni ishga yollash va tadbirkorlikni boshlashga undashi aniqlandi. Motivatsion dasturlar yordamida bu yo'nalishda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish amaliyoti osonroq amalga oshadi deb hisoblaymiz. Buning uchun jamg'arma tomonidan kambag'al oilalarga psixologik yordam, motivatsiya va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish uchun maxsus dasturlar tashkil etilishi zarur bo'lib, dasturlar orqali oilalar o'zlarining real imkoniyatlarini anglashlari va tadbirkorlikka kirishishlari osonlashadi.

Barqaror rivojlanish va ekologik muhitni inobatga olish orqali tadbirkorlik va yangi bizneslarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash mumkinligi barchaga ma'lum. Ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olish, kambag'allikni kamaytirishda muhim omillardan biri deb hisoblaymiz. Bu borada amaliy tavsiya sifatida grantlar va subsidiyalarni ajratishda ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarurligi, o'tkaziladigan tadbirlar, shu jumladan, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerakligini aytib o'tish zarur.

Shubhasiz, *xalqaro hamkorlik* orqali kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish mumkinligi, xalqaro tashkilotlar va donorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilish orqali moliyaviy resurslar va bilimlar almashinuvini ta'minlashni talab etadi. Jamg'arma xalqaro tashkilotlar va donorlar, shuningdek boshqa davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali o'zining mavjud resurslarini yanada kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi, bunda xalqaro tajriba va yondashuvlardan keng foydalanishi lozim deb hisoblaymiz.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, *shaffoflikni ta'minlash* korrupsiyani kamaytiradi va davlat resurslarining to'g'ri va maqsadli sarflanishini ta'minlaydi. Jamg'armalar va moliyaviy tashkilotlar uchun shaffoflik va hisobdorlikning yuqori darajasi samarali resurs taqsimotiga mustahkam asos yaratib, jamg'arma o'zining barcha operatsiyalarini shaffoflashtirish, grantlar, subsidiyalar taqsimotini jamoatchilikka ochiq qilishni nihoyatda zarurligi, internet va boshqa zamonaviy raqamli platformalarda bu singari ma'lumotlarni taqdim etishni aktualishtiradi.

Raqamli platformalar orqali resurslarni taqsimlash, ularning samaradorligini oshirib, ajratilgan resurslarni soddalashtirilgan tartibda olish va to'g'ri boshqarish imkonini berib, shu bilan birga resurslarni sarflashda yo'l qo'yilish ehtimoli mavjud xatoliklar kamayishiga zamin yaratadi. Demak, jamg'arma subsidiya, grant va ssudalarni onlayn platformalar orqali taqdim etishni yo'lga qo'yishi nafaqat resurslarni taqsimlash muddatini tezlashtiradi, balki yanada samarali va shaffof boshqaruvni ta'minlab beradi.

Tadbirkorlik infratuzilmasining mavjudligi biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim omillar sirasiga kirib, infratuzilma, jumladan, biznes inkubatorlari va texnologik markazlar kambag'al oilalar uchun muvaffaqiyatli tadbirkorlikni boshlash imkoniyatlarini yaratib berishini inobatga olib, amaliy tavsiya sifatida jamg'arma tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay infratuzilma yaratishga urg'u qaratishi, buning uchun biznes markazlar, biznes inkubatorlar, texnologik parklar orqali kambag'al oilalarga o'z bizneslarini boshlash va rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishi zarurligini aytib o'tishimiz lozim.

Tadqiqotlar natijasida, kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirishda *ijtimoiy yordam tizimida innovatsiyalar yo'nalishidagi* vazifalar ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiy yordam dasturlarini maqsadli guruhlariga moslashtirish;
2. Yordam tizimlarini raqamlashtirish va onlayn platformalarga o'tkazish;
3. Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish;
4. Ko'mak dasturlarini samarali va tezkor amalga oshirish uchun mobil ilovalarni ishlab chiqish;
5. Ijtimoiy yordamning uzun muddatli ta'sirini o'rganish va monitoring qilish;
6. Kambag'allikka qarshi kurashishda bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun treninglar tashkil etish;
7. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ijtimoiy startaplarni qo'llab-quvvatlash;
8. Yangi ijtimoiy dasturlarni hayotga tadbiq etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
9. Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini ijtimoiy

yordam bilan integratsiyalash; 10. O'zbekistonning har bir viloyatida ijtimoiy yordam markazlarini tashkil etish; 11.Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. 12.Ijtimoiy yordam dasturlarini mavjud resurslarga moslashtirish; 13.Yuridik yordamni kengaytirish va aholiga qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish; 14.Jamiyatni iqtisodiy faollikka jalb qilish orqali kambag'allikka qarshi kurashish; 15.Kambag'allikka qarshi kurashish uchun ijtimoiy va yuridik maslahatlarni taklif etish; 16.O'rta va kichik biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash; 17.Ijtimoiy yordam dasturlarida zamonaviy ilmiy yondoshuvlarni ishlab chiqish; 18.Ijtimoiy yordam tizimining samaradorligini baholash uchun yangi metodologiyalar ishlab chiqish.

Kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirishda *yashil iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot yo'nalishidagi* vazifalarni fikrimizcha, quyidagilardan tashkil topgan:

1.Yashil energiya manbalaridan keng foydalanishni joriy etish; 2.Qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini ishlab chiqish va kengaytirish; 3.Yashil qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish; 4.Barqaror shaharsozlik va ekologik arxitektura tizimlarini joriy etish; 5.Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan yangi normativ huquqiy bazalarni yaratish; 6.Ekologik mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish; 7.Ijtimoiy yo'naltirilgan ekologik va ijtimoiy investitsiyalarni jalb qilish; 8.Qishloq hududlarida yashil texnologiyalarni qo'llash; 9.Ekologik ijtimoiy mas'uliyatni oshirish; 10.Iqlim o'zgarishiga moslashish va ekologik barqarorlikni ta'minlash; 11.Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish; 12.Yashil iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni moliyalashtirish; 13.Barqaror iqtisodiyot tizimlarini rivojlantirish uchun ilmiy metodologiyalarni ishlab chiqish; 14.Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish; 15.Qayta ishlash va chiqindilarni boshqarish tizimlarini yaxshilash; 16.Yashil texnologiyalarni rivojlantirish uchun xalqaro tajribani o'rganish; 17.Qishloq xo'jaligida barqaror resurslarni boshqarishni qo'llash; 18.Barqaror oziq-ovqat tizimlarini yaratish.

Tadqiqotlar natijasida mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy innovatsion omillaridan eng asosiy 10 tasini aniqladik va ularning ta'sirlari hamda tavsifi quyida keltirib o'tildi(1-jadvalga qarang).

1-jadval

Kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy-innovatsion omillari

T/r	Innovatsion omil	Tavsifi	Maqsadlar	Ta'sirlar
1	Raqamli infratuzilma va internetga kirish inklyuzivligi	Internetdan foydalanishda inklyuzivlik va mobil ilovalar orqali kambag'allikka qarshi kurashish dasturlarini joriy etish.	Ijtimoiy ko'mak va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish.	Kambag'allikka qarshi kurashishda qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etish va ma'lumotlarni tez va samarali tarzda yetkazib berish.
2	Sun'iy Intellekt (SI) va ma'lumot tahlili	Katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt yordamida kambag'allikni qisqartirishga doir tahlil va prognozlar ishlab chiqish.	Samarali strategiyalarni ishlab chiqish va kambag'allikni aniqlash va prognozlash.	Ma'lumotlar asosida samarali yordam tizimlari ishlab chiqish, aholi ehtiyojlarini o'rganish va prognozlash.
3	Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish	Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, yashil	Ekologik va barqaror iqtisodiy model yaratish.	Yashil iqtisodiyot orqali barqaror ish o'rinlari yaratish va ekologik toza

		texnologiyalarni rivojlantirish.		mahsulotlar ishlab chiqarish.
4	Ta'limni raqamlashtirish va masofaviy Ta'lim	Ta'lim tizimini raqamlashtirish va masofaviy ta'lim orqali ta'lim olishni kengaytirish.	Ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish.	Kambag'allikka qarshi kurashishda ta'lim darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish.
5	Mikrokreditlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash	Kam ta'minlangan oilalarga mikrokreditlar ajratish orqali kichik biznesni rivojlantirish.	Kambag'allikni qisqartirish uchun iqtisodiy tayanch yaratish.	Yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy asoslarni ta'minlash va kichik biznesni rivojlantirish.
6	Kambag'allikni qisqartirishda innovatsion startaplar	Startaplar orqali ijtimoiy masalalarni hal qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish.	Innovatsion yechimlar yordamida kambag'allikka qarshi kurashish.	Kambag'allikka qarshi yangi iqtisodiy va ijtimoiy modellarni ishlab chiqish, iqtisodiy rivojlanishga ko'mak berish.
7	Ijtimoiy himoya tizimlarida innovatsiyalar	Ijtimoiy yordam tizimlarining raqamlashtirilishi va innovatsion dasturlarni joriy etish.	Ijtimoiy himoyani samarali va tezkor boshqarish.	Ijtimoiy yordam tizimlarini samarali va tezkor boshqarish, kam ta'minlangan insonlarga yordam berish.
8	Zichlikni kamaytirish va qishloq hududlarini rivojlantirish	Qishloq joylarida ekologik toza yashash sharoitlarini yaratish, ekologik qishloq xo'jaligini rivojlantirish.	Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va qishloq hududlarda iqtisodiy rivojlanishni oshirish.	Yangi ish o'rinlarini yaratish, ekologik xavfsiz qishloq xo'jaligini rivojlantirish va aholi daromadlarini ko'paytirish.
9	Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va telemeditsina	Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va telemeditsina orqali tibbiy yordamni masofaviy tarzda ko'rsatish.	Sog'liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish va samarali boshqarish.	Tez va samarali tibbiy xizmatlarni taqdim etish, kambag'al oilalarga ko'mak berish.
10	Xalqaro hamkorlik va ta'lim	Xalqaro hamkorlik va ta'lim sohasidagi yangi loyihalar orqali kambag'allikni qisqartirish.	Xalqaro tajribalarni o'rganish va global innovatsiyalarni o'zlashtirish.	Kambag'allikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va ta'lim tizimining sifatini oshirish.

Tadqiqotlar natijasida mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy yondashuvlarini tadbqiq etish maqsadida *"Kambag'allikni qisqartirish innovatsion laboratoriyalari"*ni tashkil etilishini taklif etamiz.

Kambag'allikni qisqartirish innovatsion laboratoriyasi — bu kambag'allikka qarshi kurashishda ilmiy, texnologik, va ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi va ilg'or usullarni o'rganish va hayotga tatbiq etish maqsadida tashkil etilgan maxsus laboratoriya sanalib, mazkur laboratoriyalarda kambag'allikni qisqartirishda innovatsion yechimlar ishlab

chiqiladi, yangi texnologiyalarni joriy qilish hamda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshiriladi.

Loyihaning maqsadi kambag'allikni qisqartirishda innovatsion texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish, yangi biznes modellarini rivojlantirish va ijtimoiy tizimlarni yanada yaxshilash, innovatsion laboratoriyalar orqali yangi yechimlar va yangi tizimlar ishlab chiqish, bu orqali esa kambag'allikni qisqartirishda samaradorligini oshirishdir.



1-rasm. Kambag'allikni qisqartirish innovatsion laboratoriyalari loyihasining asosiy yo'nalishlari

Kambag'allikni qisqartirish innovatsion laboratoriyalari loyihasining 7 ta asosiy asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqdik(1-rasmga qarang): 1)Barqaror va o'sish va rivojlanishni ta'minlash; 2)Innovatsion startaplarni rivojlantirish; 3)Samarali loyihalarni amaliyotga joriy etish; 4)Yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish; 5)Innovatsion yechimlar; 6)Ilmiy tadqiqotlar; 7)Resurslarni aniqlashtirish.

Loyiha yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ular orqali kambag'allikka qarshi kurashish, kambag'allikka qarshi kurashishda yangi ijtimoiy tizimlarni shakllantirish, ularni amaliyotga joriy etish va optimallashtirish, innovatsion startaplar hamda yangi loyihalar orqali doimiy ish o'rinlarini yaratish, innovatsion yondashuvlar orqali ijtimoiy adolatni ta'minlash, shuningdek, kambag'allikka qarshi kurashishda makro miqyosda muvaffaqiyatga erishishni ko'zda tutadi. Hududlarda loyihani amaliyotga joriy etish strategiyasi ishlab chiqilib, natijalar 2-jadvalda keltirib o'tildi.

2-jadval

Hududlarda loyihani amaliyotga joriy etish strategiyasi

Bosqich	Chora-tadbirlar	Hududlarda qo'llash
1.Ehtiyojlarni aniqlash	Har bir viloyatda kambag'allik darajasi, mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi.	Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlarida qishloq xo'jaligi asosiy yo'nalish bo'lsa, Toshkent viloyatida sanoat va xizmat ko'rsatish sektori ustun. Diagnostika shu asosda olib boriladi.
2. Mahalliy innovatsion	Har bir hudud markazida (14 ta) bittadan innovatsion laboratoriya tashkil qilinadi,	Vodiy hududida (Andijon, Namangan, Farg'ona) mintaqaviy innovatsion klaster tashkil qilinadi. Har bir

laboratoriyalarni tashkil etish	ularga sub-hududiy filiallar biriktiriladi.	laboratoriyada texnik baza, IT vositalar, tajriba zonalar bo'ladi.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy tajriba zonalarini yaratish	Kambag'allik yuqori bo'lgan mahallalarda sinov dasturlari joriy etiladi.	Samarqand, Buxoro va Xorazmda qadimiy hunarmandchilik va sayyohlikka asoslangan startaplar sinovdan o'tkaziladi. Surxondaryoda qishloq xo'jaligiga asoslangan texnologiyalar joriy qilinadi.
4. Startap va mikrobiznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Laboratoriyalar orqali yoshlar, ayollar va ishsiz fuqarolar uchun treninglar, grantlar va mentorlik dasturlari tashkil etiladi.	Jizzax, Sirdaryo, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida innovatsion mikrobiznes startaplari (masalan, IT xizmatlari, eko mahsulotlar, xizmat ko'rsatish) rivojlantiriladi.
5. Mahalliy kadrlarni tayyorlash va jalb qilish	Har bir hududda yosh innovatorlar, tadbirkorlar va olimlar bilan ishlovchi mahalliy guruhlar tuziladi.	Andijon, Namangan va Qoraqalpog'istonda oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy guruhlar tashkil etiladi.
6. Axborot texnologiyalarini keng joriy etish	Har bir hududda raqamli platformalar orqali maslahatlar, grant olish, ta'lim olish imkoniyatlari yaratiladi.	Buxoro va Toshkentda tajriba tarzida onlayn platformalar joriy etilib, boshqa viloyatlarga bosqichma-bosqich kengaytiriladi.
7. Monitoring va baholash tizimi	Har bir hududiy laboratoriya o'z faoliyatini doimiy ravishda monitoring qilib boradi va natijalarni <i>Milliy Innovatsion Markazga</i> topshiradi.	Har chorakda hududiy hisobotlar, muvaffaqiyatli loyihalar bazasi va baholovchi mezonlar bo'yicha tahlillar amalga oshiriladi.
8. Hududlararo tajriba almashinuvi va "ilg'or tajriba("best practice")lar	Viloyatlar o'zaro samarali tajribalarni baham ko'radi.	Masalan, Navoiyda sanoatga asoslangan kambag'allikni kamaytirish modeli Qashqadaryo yoki Andijon viloyatlarida qo'llash uchun taklif qilinadi.

Kambag'allikni qisqartirish innovatsion laboratoriyalari loyihasining bir yillik xarajatlar smetasi ishlab chiqildi, unga ko'ra 1 yillik sarflanadigan jami mablag'lar miqdori 85 milliard so'mni tashkil etadi(3-jadvalga qarang).

3-jadval

**Kambag'allikni qisqartirish innovatsion laboratoriyalari
loyihasining bir yillik xarajatlar smetasi**

Xarajat yo'nalishi	Izoh	Taxminiy miqdor (so'mda)
Laboratoriya infratuzilmasi	14 ta hududda bino ijarasi, ta'mirlash, mebel, internet, elektr, texnika (kompyuter, printer, projektor)	14 mlrd (har bir hududga 1 mlrd)
Asbob-uskunalar va texnologiyalar	Dasturiy ta'minot, smart interaktiv texnika, raqamli platformalar, sun'iy intellekt modullari uchun litsenziyalar	10 mlrd
Kadrlar maoshi va mutaxassislarni jalb qilish	Loyihaga jalb qilingan IT-mutaxassislar, trenerlar, koordinatorlar, metodistlar (14 viloyat uchun)	16 mlrd (har birviloyatga 1.1 mlrd)
Trening va ta'lim dasturlari	Aholi (ayollar, yoshlar, ishsizlar) uchun bepul kurslar, ustozlar, trening materiallari	7 mlrd

Startaplar uchun grantlar	Mahalliy kichik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash (har hududga 10–20 ta)	28 mlrd (har bir hududga 2 mlrd)
Monitoring va baholash tizimi	Raqamli monitoring platformasi, dala tadqiqotlari, statistik tahlillar	3 mlrd
Axborot-targ'ibot kompaniyalari	TV, radio, internetda reklama, targ'ibot videolari, bannerlar va bosma materiallar	2 mlrd
Zaxira va favqulodda fond	Ko'zda tutilmagan texnik, logistika va boshqa qo'shimcha ehtiyojlar uchun	5 mlrd

3-jadvalda keltirilganidek, laboratoriya infratuzilmasi uchun 14 mlrd so'm, asbob-uskunalar va texnologiyalar uchun 10 mlrd, kadrlar maoshi va mutaxassislarni jalb qilish qamsadlari uchun 16 mlrd, trening va ta'lim dasturlari uchun 7 mlrd, startaplar uchun grantlar 28 mlrd so'm, monitoring va baholash tizimi uchun 3 mlrd so'm, axborot-targ'ibot kompaniyalari uchun 2 mlrd so'm hamda zaxira va favqulodda fond uchun 5 mlrd so'm ajratilishi hisob-kitob qilindi.

XULOSA

Kambag'allikni qisqartirish — bu nafaqat ijtimoiy siyosatning bir bo'lagi, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy adolat va aholining farovon hayotini ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishdir. Bugungi globallashuv sharoitida kambag'allikka qarshi kurash an'anaviy yordam choralari bilan cheklanmasdan, tizimli, kompleks va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kambag'allik darajasini pasaytirish samaradorligi ko'plab omillarga — iqtisodiy o'sish sur'atlari, mehnat bozori imkoniyatlari, ta'lim sifati, ijtimoiy himoya tizimi kuchi, davlatning normativ-huquqiy siyosati va innovatsion yondashuvlarga bevosita bog'liq. Shuning uchun, faqat bir yo'nalishga e'tibor qaratish yetarli emas; kambag'allikni qisqartirish ko'p bosqichli, o'zaro uzviy bog'langan chora-tadbirlar tizimi asosida olib borilishi lozim.

Birinchidan, mehnat bozorini rivojlantirish va sifatli ish o'rinlari yaratish kambag'allikni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aholining bandlik darajasini oshirish nafaqat daromad manbaalarini ko'paytiradi, balki iqtisodiy faollikni ham kuchaytiradi.

Ikkinchidan, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimlarini modernizatsiya qilish orqali aholining mehnat salohiyatini oshirish mumkin. Bu kambag'allikning ildiz sababi bo'lgan malakasizlik va imkoniyatlar cheklanishini kamaytiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish — eng zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, manzilli yordam ko'rsatish va resurslarni oqilona taqsimlash orqali kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshiradi.

To'rtinchidan, normativ-huquqiy asoslarni kuchaytirish va ularning amaliy ijrosini ta'minlash kambag'allikka qarshi kurashning barqaror va tizimli mexanizmini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va ijtimoiy siyosatga oid qonunlar kambag'allikka qarshi kurashning huquqiy tayanchini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish kambag'allikni kamaytirishda yangi imkoniyatlarni ochadi. Ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, raqamli platformalar yordamida ehtiyojmand qatlamlarni aniq aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, kambag'allikka qarshi kurashda hududiy yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Har bir viloyat, tuman va mahalla o'zining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ega bo'lganligi sababli, bir xil siyosat barcha hududlarda teng samarani bermaydi. Shu bois hududiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqotda aniqlanishicha, kambag'allikni qisqartirishning samaradorligini oshirish uchun faqat iqtisodiy mexanizmlar emas, balki ijtimoiy ongni o'zgartirish, fuqarolik faolligini kuchaytirish va davlat-jamiyat hamkorligini mustahkamlash ham muhim. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish orqali ularning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kambag'allikni qisqartirish samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish — bu ko'p bosqichli, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadigan

jarayondir. Samarali mehnat bozori, kuchli ta'lim tizimi, ijtimoiy himoya, mustahkam huquqiy baza va innovatsion texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda olib borilgan siyosatgina kambag'allikni barqaror kamaytirishga erisha oladi.

Bu esa o'z navbatida fuqarolarning farovonligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning eng muhim garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: Adolat nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Kambag'allikka qarshi kurashish strategiyasi to'g'risida Farmon*. Prezident qarori PQ-101.
3. Jahon banki. (2022). *Poverty and Shared Prosperity 2022: Correcting Course*. Washington, DC: World Bank.
4. International Labour Organization. (2021). *World Employment and Social Outlook: Trends 2021*. Geneva: ILO.
5. United Nations Development Programme. (2023). *Human Development Report 2023/2024*. New York: UNDP.
6. Ravallion, M. (2016). *The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy*. Oxford University Press.
7. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. New York: Oxford University Press.
8. Sachs, J. (2015). *The Age of Sustainable Development*. New York: Columbia University Press.
9. Alkire, S., & Foster, J. (2011). Counting and multidimensional poverty measurement. *Journal of Public Economics*, 95(7–8), 476–487.
10. Deaton, A. (2013). *The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality*. Princeton University Press.
11. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2023). *Mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobot*. Toshkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Kambag'allik darajasi va ijtimoiy siyosat ko'rsatkichlari bo'yicha hisobot*. Toshkent.
13. European Commission. (2022). *Employment and Social Developments in Europe 2022*. Brussels.
14. OECD. (2023). *Reducing Poverty and Inequality in Developing Countries: Strategies and Lessons*. Paris: OECD Publishing.
15. Kabeer, N. (2015). Gender, labour markets and poverty: An overview. *Gender and Development*, 23(2), 167–182.